



INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA ONA TILI O'QITISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK USULLARI

Temirbekova A.O.

*NDPI Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasida
dotsenti, (PhD)*

Yusupbayeva L.

*Nukus davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2 "v" – guruh talabasi*

Tayanch so'zlar: innovatsion ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, interaktiv yondashuv, inklyuziv ta'lim, kreativ metodlar, samaradorlik, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi ehtiyojlari, metodikalar, zamonaviy ta'lim.

Ключевые слова: инновационное образование, педагогические инновации, интерактивный подход, инклюзивное образование, креативные методы, эффективность, образовательные технологии, потребности учащихся, методы, современное образование.

Key words: innovative education, pedagogical innovations, interactive approach, inclusive education, creative methods, efficiency, educational technologies, students' needs, methods, modern education.

Резюме:

Ushbu maqolada innovatsion pedagogik usullar va texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning samaradorligi va ta'limning sifatini oshirishga ta'siri tahlil qilingan. Innovatsiya, ya'ni yangi texnologiyalar va metodlarni ta'lim tizimida qo'llash, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va umumiy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik innovatsiyalar, jumladan interaktiv usullar, o'yinlar va multimedia materiallari yordamida o'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb qilish, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish yondashuvlari ta'kidlangan.

Резюме:

В данной статье анализируется эффективность использования инновационных педагогических методов и технологий в образовательном процессе и влияние на повышение качества образования. Инновации, то есть использование новых технологий и методов в системе образования, служат повышению интереса учащихся к обучению, развитию навыков творческого мышления, повышению общей продуктивности. Подчеркнуты педагогические инновации, включающие интерактивные методы, игры и мультимедийные материалы, активное вовлечение учащихся в учебный процесс, подходы обучения, адаптированные к индивидуальным потребностям учащихся.

Summary:



This article analyzes the effectiveness of using innovative pedagogical methods and technologies in the educational process and the impact on improving the quality of education. Innovations, that is, the use of new technologies and methods in the education system, serve to increase students' interest in learning, develop creative thinking skills, and increase overall productivity. Pedagogical innovations, including interactive methods, games and multimedia materials, active involvement of students in the educational process, and teaching approaches adapted to the individual needs of students, are emphasized.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati tog'risida quyidagilarni ta'kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi» [1]

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish davrning asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish yuqori saviyada o'qitishni ta'minlash va malakali kadrlarni zamonaviy ta'lim dasturlari asosida tayyorlashdan iborat.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash asosida o'qitish samaradorligini oshirish ob'ekti – barcha uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalari bo'lib, unda amalga oshiriladigan asosiy ta'lim-tarbiya jarayonlari hisoblanadi. Ta'lim muassasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish sharoitlari va imkoniyatlarini yaratadi. O'quvchilarning bilimga ehtiyojlari va qobiliyatlarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi o'qituvchi faoliyatini va mas'uliyatini oshiradi. Lug'aviy jihatdan “**innovatsiya**” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“**innovation**”) “**yangilik kiritish**” degan ma'noni anglatadi. Mazmunan esa tushuncha negizida “**innovatsiya**” tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Innovatsion pedagogik usullar - bu ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar va metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va



natijadorlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlar. Bu usullar an'anaviy dars berish shaklidan farq qilib, faol, interaktiv va o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarning yuksak bilim cho'qqilarni egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishidan katta ahamiyat kasb etmoqda. Har bir o'qituvchi dars o'tishidan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilinishi lozim. Asosiy pedagogik texnologiyalar imperik, kognitiv, evristik, kognitiv, inversion, adattiv, inklyuziv va boshqa texnologiyalardir.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya -innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarida g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish.

Ona tili o'qitish esa har bir o'quvchining lingvistik ko'nikmalari va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhim fanlardan biridir. Biroq, inklyuziv ta'lim sharoitida ona tilini o'qitish jarayonida o'qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlarni tatbiq etishni talab qiladi. O'quvchilar o'rtasidagi individual farqlarni inobatga olgan holda samarali dars tashkil qilish uchun yangi texnologiyalar, kreativ metodlar va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ushbu mavzu zamonaviy ta'lim jarayonining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'limda samarali dars o'tish uchun o'quv materiallari va mashg'ulotlarni har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirish muhimdir. Bu jarayon o'quvchilarning qiziqishlari, bilim darajalari va o'zlashtirish imkoniyatlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Quyidagi usullar bu borada yordam beradi:

1. **Matn va topshiriqlarni moslashtirish:** Matnlarni soddalashtirilgan yoki kengaytirilgan shaklda taqdim etish. Masalan, aniq grammatik qoidalarni qisqa hikoyalar yoki oddiy muloqot shaklida tushuntirish. Topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga moslashtirish.

2. **Multimodal materiallardan foydalanish:** Vizual (rasmlar, diagrammalar), audio (eshitish mashqlari), va kinestetik (amaliy harakat talab qiluvchi) materiallarni qo'llash orqali darsni qiziqarli qilish. Video darslar va



animatsiyalardan foydalanib, mavzularni yanada tushunarli va esda qolarli qilish.

3. Ko'rgazmali materiallar tayyorlash: Turli xil kartochkalar, plakatlar, interaktiv doska materiallari va slaydlardan foydalanish. Masalan, so'z boyligini oshirish uchun mavzuga oid so'zlarning rangli kartochkalari bilan ishlash. Nutq va yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'yinlar, masalan, krossvord yoki so'z topish mashqlarini o'tkazish.

4. Mashg'ulotlarni o'yin va ijodiy faoliyat bilan boyitish: O'quvchilarga she'r yoki kichik hikoyalar yozish, matnni davom ettirish kabi ijodiy topshiriqlar berish. Guruhlarda ishlashni tashkil qilish orqali hamkorlik muhitini yaratish va bir-biridan o'rganishni ta'minlash.

5. Maxsus ehtiyojlarga ega o'quvchilar uchun moslashtirish: Zaruratga qarab, braille yozuvi, audiokitoblar yoki yirik shrifli materiallardan foydalanish. Matnlarni qisqartirilgan shaklda taqdim etish yoki ma'lumotni audio yozuv tarzida yetkazish.

Ma'lumki, bugungi kunda dars jarayonida "Aqliy hujum", "Krassvord", "T-sxemasi", "Sinkveyn", "Muzyorar", "Keys stady", "Insert", "Venn diagrammasi" va "BBB" texnologiyalaridan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Mazkur maqolada dars jarayonining samarasi va sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi yana bir nechta innovatsion metodlarni tavsiya qilamiz.

"Juft barmoqchalar" metodi ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan samarali metodlardan biridir. Mazkur metodning nomi bolada uni bajarishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Metodni darsning turli bosqichlarida qo'llash mumkin. Masalan, ona tili darslarida son mavzusini uyga vazifa sifatida berishda foydalanish samaralidir. "Juft barmoqchalar" metodi ona tili va amaliy san'atning integratsiyasini o'zida aks ettiradi. Metodning qo'llanilishida o'quvchilarning barmoqlari ishlatiladi. Bunda, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga qo'l mehnati yordamida o'ng qo'l barmoqlariga sonlar va hisob so'zlarni yozishni tushuntiradi, chap qo'l barmoqlariga esa miqdori ko'rsatilgan shaxs -narsalarning rasmlarini chizish kerakligi va oxirgi bosqichda ikki qo'l barmoqlarini qovushtirganda, son va miqdori ko'rsatilgan narsa o'rtasida muvofiqlik hosil bo'lishi ta'kidlanadi. O'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan "Juft barmoqchalar" namuna sifatida ko'rsatiladi va tasvir orqali tushuntiriladi: chap qo'l ko'rsatkich barmog'iga 2 soni hamda hisob so'z yozilgan qog'ozchalar yopishtirilgan, o'ng qo'l ko'rsatkich barmog'iga esa piyozning rasmi chizilgan. Ikki barmoqni juftlashtirganimizda "Ikki



bosh piyoz” degan so‘z hosil bo‘ladi. Shunday davom etgan holda qolgan barmoqlarimizga ham rasmlarni chizamiz va sonlarni yozamiz.

“Kamalak jilosi” metodini boshlang‘ich sinflar uchun qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Mazkur metoddan ona tili, matematika va o‘qish darslarida ham foydalanish mumkin. Masalan: ona tili darslarida so‘zlarni turkumlarga ajratishda qo‘g‘irchoq, mashina, kuldi, yig‘ladi, sariq, katta, kichik, to‘qqiz kabi so‘zlarni turkumlarga ajratish va ot so‘z turkumiga doir so‘zlarni ko‘k rangli chiziqqa joylashtirish, sifat so‘z turkumidagi so‘zlarni havo rang chiziqqa joylashtirish vazifasi beriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, innovatsion pedagogik usullarni qo‘llashning ta‘lim jarayonidagi ahamiyati va uning samaradorligi ko‘rsatilgan. Innovatsion texnologiyalar va metodlar yordamida o‘quvchilarning ta‘lim olishdagi qiziqishini oshirish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, va o‘qitishning samaradorligini oshirish mumkin. Inklyuziv ta‘lim sharoitida innovatsion yondashuvlar yordamida har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta‘lim tizimini yaratish muhimdir. Bu usullar o‘quvchilarning bilim olishdagi muvaffaqiyatlarini yanada oshirishi, shuningdek, o‘qituvchilarni o‘z faoliyatida yangiliklarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
3. Ishmuhammedov.R. “Pedagogik texnologiyalar” Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O‘quv qo‘llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. - M., 1997
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o‘rganish: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.
5. X.K Muxammadiyeva, FR Ismatullayeva. ”Boshlang‘ich sinflarda didaktik jarayonda bolaning rivojlanishini ta‘minlovchi texnologiyalarni takomillashtirishning ilmiy-pedagogik tahlili”. 2022. Jurnal.
7. Karimov, O. (2020). Inklyuziv ta‘limning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent: Ma‘naviyat nashriyoti.
8. Usmonov, R. (2017). Ona tili darslarida interfaol metodlarni qo‘llash usullari. Samarqand: Fan nashriyoti.